



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**CONFERENCES.UZ**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

## O‘ZBEKISTON MILLIY ATLASIDA BUXORO VILOYATI TOPONIMLARI

**Rafikova Nodira A‘zamovna**

PhD, dotsent v.b.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**Nasullayeva Kamola Sharofovna**

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada toponimlar va ularning qisqacha tavsifi, O‘zbekiston Milliy atlasida keltirilgan Buxoro viloyati toponimlariga oid ayrim mulohazalar bildirilgan.

**Tayanch iboralar:** S.Qorayev, M.Mirakmalov, H.To‘rayev, Atlas, Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorovulbozor, Qorako‘l, G‘ijduvon, Gazli, Galaosiyo, Zafarobod, Yangibozor, Mohon ko‘li, Zaxkash, Mazragon, Dehcha, Iskogare, Chitgaron, Jovgari, Abadi, Dehoji, Rozmoz, Kosari, Chag‘dari.

## TOPONYMS OF BUKHARA REGION IN THE NATIONAL ATLAS OF UZBEKISTAN

**Rafikova Nodira**

**Nasullayeva Kamola**

**Annotation:** The article provides a brief description of the toponyms and their, some comments on the toponyms of Bukhara region, which are presented in the National Atlas of Uzbekistan.

**Keywords:** S.Karaev, M.Mirakmalov, H.To raev, Atlas, Bukhara, Vobkent, Jondor, Kagan, alot, Peshku, Romitan, Shafirkon, Guard, Scarecrow, Scarecrow, Gazli, Galaasiya, Zaferabad, Yangibazar, Mohon Lake, Zaxkash, Mazragon, Dehcha, Iskogare, Chitgaron, Jovgari, Abadi, Dehoji, Razmaz, Kosari, Chagdari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirig‘iga asosan ilk marotaba O‘zbekiston Milliy atlasini yaratildi. Unda mamlakatning tabiiy geografik o‘rni, resurslari, atrof-muhit muhofazasi, aholisi, iqtisodiyoti va tarixi aks ettirilgan. Ma‘lumotga ko‘ra, Milliy atlas 416 ta xaritalarni o‘zida jamlagan 2 jilddan iborat bo‘lib, O‘zbekistonning barcha sohalarini kartografik va matnli ko‘rinishda tavsiflovchi fundamental ilmiy-ma‘lumotnoma asari hisoblanadi.

Atlasda O‘zbekistonning “Tabiiy-geografik o‘rni va umumiy xususiyatlari”, “Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari”, “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi”, “Aholisi”, “Ijtimoiy” va “Iqtisodiyot sohalarini” hamda “Tarixi” aks ettirilgan. Milliy atlas Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va “Kartografiya” davlat



ilmiy ishlab chiqarish korxonasining 100 dan ortiq mutaxassislari, Fanlar akademiyasi olimlari, vazirlik va idoralarning vakillari hamda oliy ta'lim va boshqa ilmiy maqomga ega bo'lgan tashkilotlardan jalb etilgan ekspertlar hamkorligida yaratilgan.

Buxoro viloyati maydoni jihatidan respublikamizdagi eng katta viloyatlardan biri. O'zbekistonning markaziy va janubiy-g'arbiy qismlarida joylashgan. Tarkibida 11 qishloq tumani (Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorovulbozor, Qorako'l, G'ijduvon), 11 shahar (Buxoro, Vobkent, Gazli, Galaosiy, Kogon, Olot, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, Qorovulbozor, G'ijduvon), 3 ta shaharcha (Jondor, Zafarobod, Yangibozor). Ma'muriy markazi – Buxoro shahri.

Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorovulbozor, Qorako'l, G'ijduvon, Gazli, Galaosiy, Zafarobod, Yangibozor, Mohon ko'li, Zaxkash, Mazragon, Dehcha, Iskogare, Chitgaron, Jovgari, Abadi, Dehoji, Rozmoz, Kosari, Chag'dari kabi bir kancha toponimlar Buxoro viloyati umumgeografik xaritasida keltirib o'tilgan.

**Mazragon** – qishloq, G'ijduvon tumani. Mazra asli arabcha so'z bo'lib, “ekinzor” demakdir; -gon ko'plik affiksi yoki “suv”, “ariq”, “sug'orish tarmog'i”.<sup>3</sup>

**Zaxkash** – Buxoro shahri chekkasida bo'lgan ariq. Buxoroda partov va zax suvi oqadigan ariq, ya'ni zovur zaxkash deyilgan.

**Mohon ko'li** (Qorako'l tumani) nomi “baliqlar” degani (moh-baliq, on-ko'plik qo'shimchasi). Mohon nomi moh “oy” so'zining ko'pligi bo'lishi ham mumkin.

**Chitgaron** – “chit to'quvchilar” ma'nosida. O'tmishda chitgarlik bilan mashg'ul aholi yashaydigan qishloq.

**Dehoji** – hojiqishloq, hojilar qishlog'i ma'nosida. Haj amalini bajarganlar salmog'i ko'pligidan darak beruvchi atama.

**Dehcha** – “qishloqcha”, “kichik qishloq” degan ma'noni bildiradi.

**Jovgari** – “javgar” ya'ni “jo'xori etishtiruvchilar” so'zidan olingan. Dehqon aholining asosiy mashg'uloti jo'xori yetishtirishdan iborat bo'lganiga ishora qiluvchi toponim.

Bugungi kunda nomlarni o'rganish, saqlab qolish hamda ularning tarixi haqida risolalar tayyorlash dolzarb vazifalardan sanaladi. “O'lka tabiatining xususiyatlari, jamiyat hayotida asrlar davomida ro'y bergan tarixiy, ijtimoiy va siyosiy hodisavoqealar, aholining kasb-hunarlari nomlari, aholi punktini birinchi bo'lib o'zlashtirgan yoki unga asos solgan kishining ismi, yoyinki, unda qanday qavm vakillari yashagani yoki yashayotganiga qarab urug'-qabilaning nomi – etnonim shahar-qishloq nomlarida o'z aksini topadi” – deb qayd etgan edi taniqli olim S.Qorayev [5, 50-57 b.].

<sup>3</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари /С.Қораев;–Т: “О'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 240 б.

Xulosa o‘rnida qayd etish o‘rinliki, mazkur joy nomlari asrlar davomida ajdodlarimiz aql zakovati, xalq tajribasi natijasida sayqal topgan. Ularni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish, yoshlarimizga yetkazish bugunning dolzarb vazifasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Караев С.К. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 240 b.
2. Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлари. –Т.: Fan va texnologiya. 2009. 156 b.
3. Toshov X.R., Xolov S.V., Turdieva R.X. Ma’rifat beshigi. Ma’naviy-ma’rifiy – uslubiy qo‘llanma. Buxoro. “Buxoro nashriyoti”, 2012 y, 70 b
4. To‘rayev H. Buxoro toponimikasi darslik / H.To‘rayev .-Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona , 2021.-276 b.
5. Qorayev S. Toponimika: O‘quv qo‘ll / S.Qorayev . – T: «Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2006. – 320 b.